JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 20 - yanvar 16-3-53-Q/23 Forish tuman hokimligi

Forish tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobi lyo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida tezlikni cheklovchi va piyodalar o’tish yo’l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda), “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 28-son, 645-modda), Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y.) ijrosini hamda tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Forish tumani ichki ishlar bo`limining 2022 yil 10 avgustda 42/1410-sonli xati ma`lumot uchun qa`bul qilinsin va maqullansin.

2. Forish tumani Yassikechuv, Qoraobdol ota MFY hududlariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Tuman “Yo`llardan foydalanish” UKga (F.Hakimov) tuman hududidagi Yassikechuv, Qoraobdol ota MFY hududlariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi

O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YHXB (V.Xusanov) mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

6. Ushbu qaror “Forish tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **И.Матиев**

Forish tuman hokimining
2023 yil 20 yanvardagi
16-3-53-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Forish tumanida joylashgan maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari joylashgan ko’chalarga tezlikni cheklovchi va piyodalar o’tish yo’l belgilari o‘rnatish joylashuv dislokasiyasi

	MFY nomi	**Ko’cha nomi**	**Yo`l belgilari o`rnatiladigan ob’ekt nomi**
1	Yassikechuv MFY	Xasanota qishlog’i (asfalt) yo’li 4R-42	71-sonli umumtalim maktabi ro`parasiga
2	Yassikechuv MFY	Qorabdolota qishlog’i (asfalt) yo’li 4R-42	72-sonli umumtalim maktabi ro`parasiga
3	Yassikechuv MFY	Qorabdolota qishlog’i (asfalt) yo’li 4R-42	70-sonli umumtalim maktabi ro`parasiga
4	Qorabdolota MFY	Bolg’ali qishlog’i (asfalt) yo’li 4R-42	67- sonli umumtalim maktabi ro`parasiga
5	Qorabdolota MFY	Ko’sa qishlog’i (asfalt) yo’li 4R-42	68- sonli umumtalim maktabi ro`parasiga